KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 4 (534) 2025-YIL, 30-YANVAR

ENDI PENSIYA YOSHIGA YETGAN FUQAROLARGA AVTOMATIK TARZDA PENSIYA TAYINLANADI

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Andijon shahri bo‘limi tomonidan pensiya ta'minoti tizimiga axborot texnologiyalarini faol joriy qilish orqali fuqarolarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar bosqichma-bosqich interaktiv va proaktiv shaklga o‘tkazilmoqda.

Prezidentimizning 2023-yil 31-oktyabr kuni "Aholiga pensiya tayinlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari sifatini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-353-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 2024-yil 1-yanvardan:

fuqarolarga pensiya tayinlash uchun amaldagi tartibga qo‘shimcha ravishda ularning xohishiga ko‘ra DXM yoki YaIDXP (my.gov.uz) orqali ham murojaat qilish huquqi berildi;

fuqarolar pensiya tayinlanganidan so‘ng shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larini YaIDXP yoki AT "Xalq banki"ning mobil ilovasi orqali olishi mumkin bo‘ldi.

Fuqaro jamg‘argan pensiya mablag‘larini Xalq bankining mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratildi. Bunda, fuqarolarga pensiya tayinlanganidan so‘ng jamg‘argan pensiya pulini olish uchun Pensiya jamg‘armasidan qog‘oz shaklidagi sertifikat berish tartibi bekor qilindi. Endilikda ular Xalq bankining mobil ilovasi orqali olish amaliyoti yaratildi.

2025-yil 1-martdan boshlab pensiya yoshiga yetgan fuqarolarga pensiyalar "avtomatik" tarzda, ya'ni hech qanday hujjat talab etmagan holda, fuqaroning murojaatisiz tayinlanadi. Fuqaroning shaxsiga oid barcha ma'lumotlar esa vazirlik va idoralarning elektron bazalaridan olinadi.

Ushbu qulayliklarning yo‘lga qo‘yilishi natijasida:

Fuqarolardan pensiya tayinlash uchun qo‘shimcha hujjatlar yig‘ish uchun Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘linmasiga murojaat qilish talab etilmaydi;

Pensiya yoshiga yetgan fuqaroning telefon raqamiga "pensiya tayinlanganligi va uning miqdori" to‘g‘risida ma'lumot yuboriladi;

Pensiyaga chiqmasdan ish faoliyatini davom ettirish istagida bo‘lgan yoki pensiya miqdoridan norozi bo‘lgan fuqarolarga "avtomatik" tayinlangan pensiyani to‘xtatish huquqi beriladi;

Fuqaro pensiya tayinlanganidan, pensiya miqdoridan yoki pensiya tayinlanishi rad etilganidan norozi bo‘lgan taqdirda Pensiya jamg‘armasining tegishli shahar va tuman bo‘limiga tegishli tartibda ariza bilan murojaat qilishlari mumkin.

Jahongir G‘ANIEV,
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Andijon shahar bo‘limi boshlig‘i.

2024-YILDA 5,4 TRLN. SO‘MLIK IJRO HUJJATLARINING IJROSI BAJARILDI

Majburiy ijro byurosi Andijon viloyati boshqarmasi tomonidan 2024-yil faoliyati yakunlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani o‘tkazildi.





Tadbirda Byuroning Andijon viloyati boshqarmasi boshlig‘i Ayubxon Alimov o‘tgan davr mobaynida sohada amalga oshirilgan ishlar haqida batafsil ma'lumot berdi.

Qayd etilishicha, Byuroning Andijon viloyati boshqarmasi va tuman bo‘limlari tomonidan 5,4 trln. so‘mlik ijro hujjatlarining ijrosi tamomlanib, shundan 254 mingta ijro hujjatlari bo‘yicha 1,9 trln. so‘m amalda undirilishi ta'minlangan.

Olib borilgan ijro harakatlari natijasida davlat foydasiga undiruvlar 841 mlrd. so‘mni, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar foydasiga 995 mlrd. so‘m va fuqarolar foydasiga 100 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Ko‘rsatilgan davrda soliq qarzdorligini majburiy tartibda undirish bilan bog‘liq ijro hujjatlari yuzasidan 681 mlrd. so‘m, jinoyat oqibatida yetkazilgan zarari undirish bilan bog‘liq 450 ta ijro ishlari bo‘yicha 44 mlrd. so‘m amalda undirilishi ta'minlandi.

Bank undiruviga oid 30 mingta 2 trln. so‘mlik hujjatlarning 18 mingtasi, 1,2 trln. so‘mlik hujjatlar tamomlanib, shundan 10 mingta 540 mlrd. so‘mlik hujjatlarning amalda ijrosi ta'minlangan hamda 860 ta ijro hujjatlari bo‘yicha 514,9 mlrd. so‘mlik mulklar elektron onlayn-aukstionga chiqarilgan.

2024-yilda 87,6 mlrd. so‘m mablag‘lar ijtimoiy himoyaga olinib, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘tkazilgan.

Tadbir davomida jurnalist va blogerlar faol qatnashib, berilgan savollarga mutasaddilar tomonidan javob oldilar.

O.ABDURAHMONOVA,
MIB Andijon viloyat boshqarmasi katta inspektori.

BOBUR MIRZONING ANDIJONDAGI SIYOSIY FAOLIYATI

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruvi faoliyatida barqarorlik, tinchlik va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning amaliy tajribasi yorqin namuna bo‘la oladi. Prezidentimizning Yangi O‘zbekiston STRATEGIYASI asarida, Buyuk mutafakkir shoirimiz Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z vaqtida baho berib aytganidek: "Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir, Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir".

Bu fikrimizning mantiqiy davomi sifatida bugun jamiyatimizda "qonun - ustuvor, jinoyatga jazo muqarrar" degan tamoyil qaror topmoqda. Tobora yangilanayotgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ochiqlik va oshkoralik zamoni, keng va chuqur yangilanish davrining timsoli sifatida amalga oshirilmoqda.

Amir Temur asos solgan ulkan saltanat XV asr oxiri - XVI asr boshlarida chuqur inqiroz davrini kechirayotgandi. Temuriyzodalarning taxt uchun o‘zaro kurashi saltanatni tanazzulga olib keldi. Darhaqiqat, Amir Temur vafotidan so‘ng uning qudratli, ulkan saltanati ich-ichidan yemirila boshladi. Temur hayotligida isyon tug‘ini ko‘tarishga jur'at eta olmagan bir qator davlat hukmdorlari paytdan foydalanib, o‘z mustaqilliklarini qo‘lga kiritdilar. Buyuk davlatning parchalanishida temuriy shahzodalarning toju-taxt uchun kurashlari ham asosiy sabablardan biri bo‘ldi. Faqat uning o‘g‘li Shohruh Mirzo otasi asoslagan saltanatning Kichik Osiyo va Suriyadan tashqari katta qismini qirq to‘qqiz yil davomida o‘z qo‘li ostida saqlab turishga erishdi.

Ilm-ma'rifat, san'atni yuksak qadrlagan Shohruh Mirzo davrida poytaxt Xirot madaniyat markaziga aylandi.

Temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bek o‘z davrining fozil, zukko kishisi sifatida shuhrat qozondi.

Bundan so‘ng Temur davlatini tasarruf qilganlardan biri Abusaid Mirzo bo‘ldi. Samarqandni o‘ziga poytaxt qilgan Abusaid Mirzo (1455-1469) o‘zining yuksak salohiyati bilan davlat tizginini ilkida qattiq tutdi. Biroq, Abusaid Mirzoning vafoti oldidan o‘z tasarrufidagi yerlarni o‘g‘illariga taqsimlab berishi busiz ham tanazzulga yuz tutgan davlatni yanada parchalanishiga, shahzodalar o‘rtasida toju-taxt uchun kurashning avj olishiga sharoit yaratdi. Lekin bu o‘rinda Abusaid Mirzoni ayblash noto‘g‘ri bo‘lardi. Chunki, taqsimot bo‘lmagan taqdirda ham shahzodalar o‘rtasidagi toju-taxt uchun kurash baribir yuzaga kelishi tayin edi. Taqsimot shunday edi: katta o‘g‘liga Samarqand va Buxoro tevaragini, ikkinchi o‘g‘liga Hinduqush bilan Hisor tog‘lari orasidagi butun mintaqani o‘z ichiga olgan Badahshon tevaragini, uchinchi o‘g‘li bo‘lgan Umarshayx Mirzoga, ya'ni Boburning otasiga Farg‘onani, to‘rtinchi o‘g‘liga esa Qobul va G‘azna mintaqasini bergan edi.

Bobur tug‘ilib voyaga yetgan Farg‘ona muzofotiga uning otasi Umarshayx Mirzo podsholik qilar edi. U Samarqandda hukmdor bo‘lgan akasi Sulton Ahmadga va qaynisi Mahmudxonga qarshi turli bahonalar bilan hujum qilar, tez-tez janglar olib borib davlati hududini kengaytirish va asosan Samarqandni egallashni istar edi. Uning bunday tajovuzlaridan zerikkan qarindoshlar birlashib, Umarshayxga qarshi zarba berishga qaror qilishgan va bu maqsadda Sulton Ahmad bilan Mahmudxon birlashib harakat boshlagan edilar. Xuddi shu paytda 1494-yil 9-iyunda Umarshayx Mirzo Axsi qo‘rg‘onida jarga qulab vafot etadi. Bobur bu paytda o‘zi hokim bo‘lgan Andijonda edi. Otasining vafoti xabarini faqat ertasi kuni olgach, darhol mulozimlari bilan otlanib 60 kilometr uzoqlikda bo‘lgan Axsiga ketish va ichki qal'ani mustahkamlashga qaror qiladi. Faqat bir necha beklar bu harakat boshqalarni shubhaga solishini aytib, Boburni bu fikridan qaytarmoqchi bo‘ladilar. Lekin Bobur o‘z fikridan qaytmasdan Axsi qo‘rg‘oniga keladi va qal'adagi aholini ham o‘ziga itoat qildirib, otasi o‘rniga taxtga o‘tiradi.

(Davomi 2-betda)

BOBUR MIRZONING ANDIJONDAGI SIYOSIY FAOLIYATI

(Davomi. Boshi 1-betda)

1483-yil 14-fevralda tug‘ilgan Bobur podsho bo‘lgan paytida 11 yoshda edi. Farg‘onaning to‘rt-besh mingdan oshmagan askarlari bilan ota merosini muhofaza qilishdek juda mushkul bir vazifa yosh Bobur Mirzo zimmasiga tushgan edi.

Sulton Ahmad Samarqanddan va Sirdaryoning janubidan harakat qilib O‘ratepa, Xo‘jand va Marg‘ilonni egallaydi. Lashkar shiddat bilan yaqinlashmoqda edi. Faqat shu paytda Quva yaqinidagi kechuvi botqoqlik bo‘lgan bir irmoqni kechib o‘tish chog‘ida ko‘prik buzilib, askarlari va otlarining bir qismidan ayriladi. Buning ustiga qo‘shin orasida ot o‘lati tarqalib, otlar qirila boshlaydi, askarlar orasida parokandalik boshlanadi. Dushman poytaxt Andijon ostonalariga yaqinlashgan mahalda qo‘shinning ma'naviy ruhi ham tushib ketadi. Bu holat tufayli Sulton Ahmad darhol jiyani Boburning taklifi bilan sulhga rozi bo‘ldi. U qo‘shini bilan Samarqandga qaytish yo‘lida O‘ratepa yaqinidagi Oqsuv mavzeida to‘satdan kasallanib, vafot etadi.

Mo‘g‘ul xoni Mahmudxon, ya'ni Boburning tog‘asi Toshkentdan harakat qilib Axsini qamal qiladi. Axsi qo‘rg‘oni Namangan shahri yaqinidagi bir tepalik ustida bo‘lib, chap tomonidan Sirdaryo oqib o‘tuvchi, tik qoyalar ustida devorlar bilan o‘ralgan mustahkam qal'a bo‘lib, uni zabt etish mushkul edi. Axsi mudofaachilari dushmanga qattiq qarshilik ko‘rsatadilar.

Sulton Ahmadning Bobur bilan sulh tuzib ortga qaytishi va yo‘lda vafot etishi Mahmudxonni ham mushkul vaziyatga solib qo‘yadi. Oxir oqibat Mahmudxon ham qamalni to‘xtatib, Toshkentga qaytishga majbur bo‘ldi.

Ushbu jangning bu kabi natijasiz tugashi ichki nizolarni ham to‘xtatib, Bobur hokimiyatini mustahkamlash va mavqeini ham yuksaltirish imkonini berdi.

Andijonda bir muddat osoyishtalik qaror topdi. Isfarada Ibrohim Soriyning isyoni bostirildi, Qoshg‘ardagi Abobakr Mirzoning harakati ham to‘xtatildi. Bu vaqt ichida Xo‘jand ham zabt etiladi. Faqat Boburning katta ruhi kichik Farg‘ona xonligiga qanoat qilmas, uning qalbida o‘z davlatini yanada kengaytirish, mustahkamlash ishtiyoqi jo‘sh urardi. Dushmanlarning birgalashib qilgan hujumi daf qilinganidan keyin u tashabbusni ham qo‘lga oldi.

1496-yili Samarqandning yangi hukmdori Boysung‘ur Mirzo Buxoro ustiga hujum qilib, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Boysung‘ur Mirzo podsholigidan ko‘p azob chekkan Samarqand peshvolari Boburni Samarqand taxtini olishga taklif etadilar. Bu taklif bo‘yicha Bobur Buxoro taxtida o‘tirgan Sulton Ali Mirzo bilan Samarqandga birgalikda yurish qilish haqida bitim tuzib, ramazon oyida Andijondan Samarqand sari qo‘shin tortadi. Ayni vaqtda Sulton Ali Mirzo ham Buxorodan chiqib, Xoja Kazarun degan joyda Bobur bilan uchrashadi va ular birlashib Samarqandni qamal qila boshlaydilar.

Qamal uzoq cho‘ziladi. Qish kirishi bilan Sulton Ali Mirzo qamal cho‘zilib ketganligini bahona qilib, Buxoroga qaytib ketadi. Bobur Samarqand qamalida qat'iy turib, qo‘shin qishlashi uchun Xoja Dehdor degan joyda qarorgoh quradi. Bu orada Boysung‘ur Mirzoga yordam uchun Turkistondan Shayboniyxon qo‘shini bilan keladi va Samarqand yaqinida lashkargoh quradi. Bundan xabar topgan Bobur qo‘shinni jamlab, Dehdordan Samarqand sari otlanadi. Shayboniyxon ham o‘z qo‘shini bilan Samarqand ostonasida manzil quradi.

Shayboniyxon Boburga qarshi jangni paysalga solgani bois, Boysung‘ur Mirzo uning yordamidan umidini uzib, shahar darvozalarini mustahkam berkitadi. Shayboniyxon o‘z qo‘shini bilan Turkistonga qaytib ketadi. Boysung‘ur Mirzo qiyin vaziyatda qolgach, Boburning huzuriga taniqli amaldor va olimlarni yuboradi. Bir necha janglardan so‘ng ikki tomon o‘zaro bitimga kelishadi. Unga ko‘ra Boysung‘ur Samarqandni Boburga berib, butun boyligi va yaqinlari bilan Xisori Shodmon va Qunduz tarafga ketadi, bunda unga hech kim to‘sqinlik qilmaydi. Shundan so‘ng Bobur Samarqandga kirib keladi. 1497-yil noyabr oyining oxirida shaharning ulug‘ peshvolari Boburga peshvoz chiqib katta hurmat bilan kutib oladilar va Samarqand taxtiga o‘tqazadilar.

Bobur 16 yoshida Movarounnahrning eng muhim va buyuk shahri Samarqand hukmdori bo‘lgan edi. Faqat uzoq davom etgan qamal sababli shaharda oziq-ovqat va yem tugagan edi. Dehqonlar ekish uchun urug‘ topa olmayotgan edilar. Bu holat Bobur qo‘shinidagi beklar va askarlar ruhiyatiga ham katta ta'sir ko‘rsatadi.

Beklardan Uzun Hasan Boburning ukasi Jahongir Mirzoning onasi qabilasidan chiqqan jasur askarboshi edi. U Jahongir Mirzoning taxtga o‘tirishini istardi. Shu sabab u Boburdan ayrilib, fitna qo‘zg‘aydi. Uzun Hasan Boburdan norozi bo‘lgan barcha askarlarni to‘plab, Boburning Samarqandda turib qolganidan shikoyat qilib, isyon bayrog‘ini ko‘tardi. U Andijonga qaytib, shaharni qamal qiladi. Bobur Samarqandda xastalanib, yordamga kela olmagani sababli Andijon voliysi Ali Do‘st tag‘oyi shaharni Uzun Hasanga topshirishga majbur bo‘ladi.

Fitnachilar Bobur Samarqandda vafot etgani haqida mish-mish tarqatib, Farg‘onada hokimiyat Boburning ukasi Jahongir Mirzoga o‘tishini ovoza qiladilar. Bu vaqtda Jahongir Mirzo 14 yoshda bo‘lib, amalda hokimiyat Uzun Hasan bilan Ahmad Tanbal qo‘liga o‘tadi.

Bu orada Bobur sog‘ayib, Andijonda yuz bergan voqealardan xabar topgach, qattiq qayg‘uga tushadi. Samarqandda Boburning qo‘l ostidagi beklar tamoman tarqalib, yonida faqat 200 tacha askar qolgan edi, xolos. Og‘ir vaziyatda qolgan Bobur Mirzo Samarqandni tashlab chiqishga majbur bo‘ladi.

Bobur Samarqanddan chiqib Xo‘jandga keladi. Toshkent hukmdori, tog‘asi Sulton Mahmudxonga yordam so‘rab elchi yuboradi. Sulton Mahmudxon huzuriga Jahongir Mirzo nomidan ko‘plab sovg‘a-salomlar bilan elchilar keladi, kelishuv sulhi haqida muzokara bo‘ladi. Ahmad Tanbalning ukasi Bek Telba va Xoja Abulmakorim turli vositalarni ishga solib, ancha ko‘ngilchan Sulton Mahmudxonni sulh tuzishga ko‘ndiradilar. Natijada, Samarqand Bobur Mirzo tasarrufida, Farg‘ona taxti esa Jahongir Mirzo qo‘lida qolishligiga kelishiladi.

Baxtli tasodif yuz berib Farg‘onaning ayrim amirlari Boburxon huzuriga birin-ketin choparlar yuborib, uning Farg‘onaga qaytishini iltimos qiladilar. "Agar biz biron narsada ayblansak ham, bizning ayblarimizni kechirib yuborish suvlari bilan yuvib tashlang va viloyatga yurish qilib keling. Bizlar esa ilojimiz boricha Sizga xizmat qilamiz va o‘z ayblarimizni yuvib tashlashga harakat qilamiz" deyiladi, takliflarning birida. Bundan ruhlangan Bobur darhol Marg‘ilon sari otlandi. Bir kunning o‘zida 34 farsax (252 km) masofadagi yo‘lni bosib Marg‘ilonga yetib keldi. U bilan birga 240 nafar askari bor edi, xolos.

Marg‘ilon hukmdori Ali Do‘st tag‘oyi Boburni izzat-ikrom bilan kutib oladi. Bundan xabar topgan Jahongir Mirzo katta qo‘shin bilan Andijondan chiqib Marg‘ilonga 1 farsax (7-8 km) masofadagi Safon qishlog‘ida to‘xtaydi. Bobur ham qo‘shini bilan Marg‘ilondan chiqib jangga kirishadi. Ikki o‘rtadagi jangda Bobur zafar quchadi, Jahongir Mirzo qolgan qo‘shini bilan Andijonga qaytadi. Andijon aholisi shahar darvozalarini berkitib, Jahongir Mirzoni qal'aga qo‘ymaydi. Bundan xabardor bo‘lgan Bobur qo‘shinni jamlab zudlik bilan Andijonga keladi. Jahongir Mirzo va Ahmad Tanbal O‘shga qaytadi, Uzun Hasan esa bir guruh fitnachilar bilan Axsiga qochadi. Andijon aholisi Bobur Mirzoni shodhurramlik bilan qarshi oladi. Shu tariqa 1499-yil iyul oyi oxirida Bobur ota yurtini takror qo‘lga kiritdi.

Talantbek MADUMAROV,
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Yoshlar masalalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, yuridik fanlari doktori, professor.

GIDROTEXNIKA INSHOOTLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH - MUHIM MASALA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida suv xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-101-sonli farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-sentabrida "O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi ob'ektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishini nazorat qilish inspekstiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 500-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning 4-ilovasida Respublika hududidagi "O‘ta muhim gidrotexnika inshootlari" ro‘yxati tarkibiga Andijon viloyati hududidagi gidrotexnika inshootlarining turi, mukammalligi, sinfi va maksimal suv o‘tkazish qobiliyatiga qarab, 19 ta, jumladan, Andijon suv ombori, Asaka-Adir suv ombori, Shahrixonsoy, Andijonsoy, Savay, Asaka tashlamasi kanallari, Janubiy Farg‘ona kanali Bosh inshooti, Kampirrovot, Kuyganyor, Teshiktosh, Oltinko‘l va Asaka gidrouzellari va Shahrixon GES-5A, Shahrixon GES-6A, JFK GES-1, JFK GES-2, Andijon-1 GES va Andijon-2 GES lari kiritildi.

Respublikamizdagi mavjud suv xo‘jaligi ob'ektlarini texnik soz holatda saqlash, ularning xavfsizligini ta'minlash va ulardan ishonchli foydalanish, suv xo‘jaligini rivojlantirish, sohaga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari samaradorligini ta'minlash maqsadida keyingi yillarda suv xo‘jaligida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, suv xo‘jaligi ob'ektlarini qurish, ulardan foydalanish, shuningdek, xorijiy tajriba natijalaridan kelib chiqib, "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini yangi tahrirda qabul qilish kerakligi talab etildi.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-apreldagi PF-6200-son Farmoni bilan "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida"gi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni zamonaviy talablar va yondashuvlar asosida qabul qilindi.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi ustidan davlat nazoratini maxsus vakolatli davlat organining o‘z vakolati doirasida gidrotexnika inshootlari hududiga moneliksiz kirishi, shuningdek, o‘z nazorati ostidagi gidrotexnika inshootlarini bir yilda kamida ikki marta tekshirishi belgilandi.

Gidrotexnika inshootlarini qurish va rekonstrukstiya qilish loyihalarida, birinchi navbatda, ularning xavfsiz va ishonchli ishlashini ta'minlash muhim etib ko‘rsatildi.

I va II sinfga mansub gidrotexnika inshootlarini loyihalashda nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish lozimligi kiritildi.

Gidrotexnika inshootlari loyihalarini bir vaqtning o‘zida (parallel ravishda) ishlab chiqqan holda qurish va rekonstrukstiya qilish taqiqlandi. Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta'minlash yuzasidan buyurtmachi, loyiha, pudrat va foydalanuvchi tashkilotlarning mas'uliyati oshirildi.

Maxsus vakolatli davlat organining zarur bo‘lgan vakolatlari kengaytirildi hamda mas'uliyati oshadi, inshootlarni loyihalash, qurish, rekonstrukstiya qilish, ta'mirlash-tiklash, konservastiya qilish va tugatish ishlarida xavfsizlik bo‘yicha nazorat kuchaytirildi.

Gidrotexnika inshootlarining xavfsiz va ishonchli ishlashi hamda aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining xavfsizligi ta'minlanadi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab, gidrotexnika inshootida sodir bo‘lgan avariya natijasida yetkazilgan zarar uchun majburiy sug‘urtalash, gidrotexnika inshootida sodir bo‘lgan avariya natijasida etkazilgan zararni qoplash belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-iyuldagi 457-sonli qarori bilan viloyatda 2 ta suv ombori Andijon va Asaka-adir suv omborlari mazkur ro‘yxatga kiritildi.

Qonunning 30-moddasida gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanib, O‘zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirishlar kiritildi. Xususan Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 76-moddasiga ko‘ra, suv xo‘jaligi ob'ektlari va qurilmalarini shikastlantirish, ulardan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish holatlari kuzatilganda quyidagi miqdorda jarima solish belgilandi.

A.XOLMATOV,
"Suvxo‘jaliknazorat" inspekstiyasi Andijon viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi.

MEDIATOR VAZIFASINI BAJARISH

Ota vafotidan so‘ng aka-singil o‘rtasida mulkiy nizo chiqadi. Ota uyda aka yashayapti. uy hujjatlari esa singil qo‘lida.

Ana shu singil notarial idoramizga maslahat so‘rab keldi. Men undan akasining raqamini olib, uni ham idoraga taklif qildim.

Ularga otadan qolgan uy-joyga har ikkalasi haqdorliklari, meros huquqi haqida batafsil tushuncha berdim.

Aka ish sudga o‘tsa, bari bir uy-joy bo‘linishi, singlisining ham bu uyda ulushi borligi, sud qarori bilan majburiy ijro organi xodimlari orqali baribir undirilishini tushunib etdi.

Ular sudlashmaydigan, aka, singlisiga uyning bozor narxidan kelib chiqib, haqqini chiqarib beradigan bo‘ldi.

Albatta bu oson kechmadi, ammo, ularga asl holatni tushuntira oldim va mediator sifatida o‘z vazifamni uddalay oldim, deb o‘ylayman. Quvonarlisi, bu ishimdan o‘zim qanoat hosil qildim.

Shu o‘rinda, "Mediator o‘zi kim? Uning vazifasi nimalardan iborat? U ajrashgan er-xotin o‘rtasidagi nizolarni murosaga keltirish bilan shug‘ullanadimi?", degan o‘rinli savollar tug‘ilishi shubhasiz.

Avvalo, joriy yildan boshlab xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslarga mulkiy va meros masalalarida nizolarni sudgacha hal qilish - mediator vazifasini bajarish vazifasi yuklatilganini qayd etmoqchiman.

Shu o‘rinda, aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirining joriy yil 2-maydagi buyrug‘iga "Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar" ilovasining 1-bandi "mediator vazifasini bajaradi" qo‘shimchasi bilan to‘ldirilgani ham bejiza emas.



Fuqarolar, er va xotin, oila a'zolari o‘rtasidagi mojarolar ko‘pincha mulkiy nizolar ko‘rinishida bo‘ladi. Bu O‘zbekiston Respublikasida mediastiyani qo‘llash doirasi "Mediastiya to‘g‘risida"gi Qonun bilan aniq belgilab qo‘yilgan. Xususan qonunning 3-moddasiga ko‘ra, quyidagilarga nisbatan - fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq kelib chiqadigan va yakka mehnat nizolariga hamda oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediastiya tartib-taomillari qo‘llaniladi.

Sh.RAHIMOV,
Jalaquduq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

FUQAROLAR MUROJAATI - ADLIYA E'TIBORIDA

Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2024-yil davomida norma ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash amaliyoti sohasida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, viloyat adliya boshqarmasi hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlariga 2024-yil davomida jami 20362 ta murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlarning 8474 tasi shaxsiy va sayyor qabullarda kelib tushgan.

Murojaatlarning 19846 tasi hal etilishiga erishilib, 16205 tasi qanoatlantirildi, 3641 tasiga huquqiy tushuntirish berildi.

Qanoatlantirilgan murojaatlar asosida turli idoralarga 381 ta taqdimnoma, sudlarga 417 ta 30,3 mlrd. so‘mdan ortiq da'vo ariza va 78 ta ma'muriy javobgarlikka tortish yuzasidan taklif kiritildi.

Boshqarma va tuman (shahar) adliya bo‘limlari tomonidan joriy yilda jami 2489 ta o‘rganish va monitoringlar o‘tkazildi. O‘rganishlar davomida aniqlangan qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan jami 899 ta taqdimnomalar kiritildi.

Kiritilgan taqdimnomalar natijasida fuqarolar va tadbirkorlarga 81,5 mlrd. so‘mga yaqin mablag‘lar qaytarildi, shuningdek, 4432 ta hujjat bekor qilingan va qonun hujjatlariga muvofiqlashtirilgan, 106 nafar shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilishi va 7 nafari bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinishi ta'minlandi.

Bundan tashqari, boshqarma va adliya bo‘limlar tomonidan turli tashkilotlarga qonunbuzilish holatlariga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan 482 ta ogohnoma kiritildi.

Shuningdek, aniqlangan ma'muriy huquqbuzarlik holatlari yuzasidan 720 ta ma'muriy takliflar chiqarilgan bo‘lib, shundan 549 tasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilgan. Mazkur takliflar natijasida 714 nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Viloyatdagi FHDYO bo‘limlari tomonidan 2024-yil davomida 86597 ta tug‘ilganlik holati, 23258 ta nikoh tuzilganlik holati, 16460 ta o‘lim holati va 4822 ta nikohdan ajralganlik yuzasidan dalolatnoma yozuvlari qayd etilgan.

Shuningdek, 83 ta farzandlikka olish, 171 ta dalolatnoma yozuvlarini tiklash harakatlari amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, 2024-yilda viloyatdagi Davlat xizmatlari markazlari orqali aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga 850 mingga yaqin xizmat ko‘rsatilgan. Shundan, 495 mingdan ortiq xizmat ko‘chmas mulk, ta'lim, listenziya, ijtimoiy sohalarga oid bo‘lsa, 81 mingdan ortiq xizmatlar asosan tadbirkorlik sub'ektlarini hisobga qo‘yishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va qayta ro‘yxatdan o‘tkazish sohasi bo‘yicha ko‘rsatilgan.

Hozirgi kunda aholiga Davlat xizmatlari markazlari tomonidan 400 dan ortiq davlat xizmatlari ko‘rsatilmoqda, joriy yilda 10 dan ortiq yangi turdagi davlat xizmatlari qo‘shildi.

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan 2024-yil davomida jami 540503 ta hujjat loyihalari huquqiy ekspertizadan o‘tkazilgan bo‘lib, shundan, 7318 tasiga salbiy xulosa berilgan. Shuningdek, 42186 ta hujjat loyihalarida kamchiliklar mavjud bo‘lganligi tufayli tashkilotlarga rad javobi berilib, qaytarilgan.

Markazlar tomonidan joriy davr davomida 369 ta talabnoma kiritilgan bo‘lib, 352 tasi qanoatlantirilgan.

Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan Markazlarga biriktirilgan tashkilotlarning mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadida 2024-yil davomida sudlarga jami 157 ta da'vo arizalari kiritilgan bo‘lib, 154 tasi sud tomonidan qanoatlantirilgan, 3 ta da'vo arizasi sud ish yurituvida.

U.XAKIMOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi.



OSHQOVOQ SHARBATINI FOYDASINI BILASIZMI?

Oshqovoq sharbatida kaliy moddasi ko‘pligi bois, organizmdan suyuqlik ajralib chiqishini kuchaytiradi. Siydik haydash xususiyati tufayli bunday sharbatlar yuragi xasta hamda buyragida shish hosil bo‘lganlar uchun juda foydali.

Oshqovoq sharbatida eng kamyob hisoblangan T darmondorisi ham mavjud. U qon ketishini to‘xtatuvchi to‘qimalar - trombositlar hosil bo‘lishiga ko‘maklashadi. Shuning uchun qon ketishidan aziyat chekkanda yoki milklar tez-tez qonaganda, oshqovoq sharbatini ichib turgan ma'qul.

Tarkibida A darmondorisi ko‘pligi bois, ko‘zlarimiz sog‘lomligi uchun ham oshqovoqning nafi katta. Ko‘z nurini oshirish, ko‘rish qobiliyatini yaxshilash uchun ham oshqovoq foydali.

Oshqovoq sharbati sabzi va olma sharbatlariga teng miqdorda qo‘shib ichilsa, uning samarasi yanada oshadi. Sharbatlarning bunday aralashmasini ertalab va kunduzi ovqatdan 30-40 daqiqa avval bir stakandan ichish kerak. Agar kechqurun va yotishdan avval ichilsa, siydik haydagani bois, uyquni bo‘lishga to‘g‘ri keladi.

D.ABDUMAJIDOVA tayyorladi.

NOTARIUSGA HUJJATLAR TAQDIM ETILGAN VAQTNI TASDIQLASH QANDAY TARTIBDA AMALGA OSHIRILADI?

Notarius o‘ziga hujjat taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi. Notarius hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlashda hujjat taqdim etgan jismoniy shaxsning shaxsini yoki vakolatini hamda yuridik shaxsning huquq layoqatini va vakilining vakolatini aniqlaydi. Bu notarial harakat manfaatdor shaxsning yozma arizasiga asosan amalga oshiriladi.

Murojaat qiluvchi bitimni rasmiylashtirish uchun notarial idoraga o‘zi kelib murojaat qiladi yoki notarius xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud "E-notarius.uz" axborot portali orqali ro‘yxatdan o‘tadi.

Murojaat qiluvchi notarial idoraga bevosita o‘zi kelganda uni notarius yordamchisi qabul qiladi, notarius yordamchisi mavjud bo‘lmaganda kotib yoki notarius stajyori, ular ham bo‘lmaganda notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Bunda, notarius yordamchisi (kotib yoki notarius stajyori) murojaat qiluvchini notarius qabuliga elektron navbatga yozib qo‘yadi va bu haqda notariusni xabardor qiladi, bundan notarius qabuliga navbatga yozilgan murojaat qiluvchilar mavjud bo‘lmagan hollar mustasno.

Notarius tomonidan ko‘chmas muklarni boshqa shaxsga o‘tkazish haqidagi bitimlarni (ko‘chmas mulkning oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, umrbod ta'minlash sharti bilan uy-joyni boshqa shaxsga berish shartnomalari va boshqa shu kabi bitimlarni) tasdiqlash tartibini belgilaydi.

Notarius tomonidan bitim notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko‘ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

Bitim notarial idora binosidan tashqarida rasmiylashtirilgan taqdirda, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida bitim rasmiylashtirilgan joyning manzili hamda barmoq izlarini "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida skaner qilish jarayoni to‘liq audio va videoda qayd etilishi lozim.

Notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.

Agar bitim murojaat qilgan shaxs tushunmagan yoki yaxshi bilmagan tilda bajarilsa, unda hujjat matni notarius yoki murojaat qilgan shaxs taklif etgan tarjimon tomonidan og‘zaki tarjima qilinishi mumkin. Bu haqda hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvida kim tomonidan tarjima qilinganligi, shaxsini tasdiqlaydigan hujjatning nomi, uning raqami, berilgan sanasi va shu hujjatni bergan organning nomi hamda matn mazmuni tushuntirilganligi ko‘rsatilishi kerak. Bunday holda murojaat qilgan shaxs o‘zi biladigan tilda ismi, familiyasi, otasining ismini to‘liq yozib, imzo qo‘yadi.

M.XUSANOV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

OCHIQ SAVDODA SOTIB OLINGAN KO'CHMAS MULKKA GUVOHNOMA BERILADIMI?

Notarius ko‘chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida to‘g‘risida guvohnoma beradi.

Guvohnoma qonunchilikda belgilangan muddatlarda beriladi.

Notarius tomonidan bitim notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko‘ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

Fuqarolik kodeksining 110-moddasiga muvofiq ko‘chmas mulklarni boshqa shaxsga o‘tkazish bilan bog‘liq quyidagi bitimlar, jumladan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini boshqa shaxsga o‘tkazish to‘g‘risidagi bitimlar, korxonani sotish shartnomasi, ko‘chmas mulkni hadya qilish shartnomasi, renta shartnomasi, umrbod ta'minlash sharti bilan uy, kvartira, uyning yoki kvartiraning bir qismini boshqa shaxsga berish shartnomasi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa bitimlar notarial tasdiqlanishi shart.

Notarius "E-notarius.uz" axborot tizimi orqali kelib tushgan elektron murojaatlarni ko‘rib chiqishi va belgilangan muddatda murojaat qilgan shaxslarni qabul qilishi shart.

Murojaat qiluvchi elektron tarmoq orqali notarius qabuliga navbatga yozilishni, shuningdek bitim rasmiylashtirilishi uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni jo‘natgan holda tegishli bitim loyihasining oldindan tayyorlab qo‘yilishini so‘rab murojaat qilishi mumkin.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali notarius qabuliga yozilish bo‘yicha yo‘llangan murojaatlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini navbatma-navbat qayd qilish elektron ro‘yxatiga avtomatik tarzda qayd qilinadi.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali bitim rasmiylashtirilishi uchun zarur bo‘lgan ma'lumotlarni oldindan jo‘natgan holda, tegishli hujjatlarning tayyorlab qo‘yilishi bo‘yicha yo‘llangan murojaatlari ularning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Murojaat bo‘yicha bitim loyihasi notarius tomonidan belgilangan vaqtda oldindan tayyorlab qo‘yiladi.

Murojaat qiluvchi notarial idoraga bevosita o‘zi kelganda uni notarius yordamchisi qabul qiladi, notarius yordamchisi mavjud bo‘lmaganda kotib yoki notarius stajyori, ular ham bo‘lmaganda notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Notarius bitimni rasmiylashtirishni so‘rab murojaat qiluvchilarning (ularning qonuniy vakillarining, shuningdek vasiy va homiylarining) va yuridik shaxs vakillarining shaxsini aniqlaydi.

Notariuslar o‘z nomiga va o‘z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining qarindosh-urug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog‘langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Notarius bitimni rasmiylashtirishni so‘rab murojaat etgan jismoniy shaxsning muomala layoqatini u bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

Ko‘chmas mulk yoki uning bir qismini boshqa shaxsga o‘tkazish bo‘yicha bitimlarni notarial tasdiqlashda notariuslar bu mulklar mulkdorga tegishli yoki tegishli emasligini tekshiradi.

Notariuslar notarial xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tegishli davlat organlari va korxonalari bilan idoralararo axborot hamkorligi tizimi orqali (shu jumladan, elektron ko‘rinishda) to‘g‘ridan-to‘g‘ri oladilar. Bu kabi bevosita axborot almashinuvi tadbirkorlar tomonidan mol-mulk oldi-sotdi bitimining amalga oshirilishini nafaqat soddalashtirib qolmasdan, balki uni tezlashtiradi ham.

Bitim notarial idora binosidan tashqarida rasmiylashtirilgan taqdirda, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida bitim rasmiylashtirilgan joyning manzili ko‘rsatiladi va bitimni rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni majburiy audio va videoga qayd etiladi.

Bitimni rasmiylashtirish jarayonini audio va videoda qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar tasvirga to‘liq tushirilishi shart. Bunda notarius tomonidan qanday turdagi notarial harakat amalga oshirilayotganligi, notarial harakat mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan ovoz chiqarib taraflarga tushuntirib berilganligi hamda hujjat matni bilan taraflar to‘liq tanishganligi va ularning asl maqsadiga muvofiqligini tasdiqlagan holda imzolash hamda barmoq izlarini "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida skaner qilish jarayoni to‘liq audio va videoda qayd etilishi lozim.

"Notariat to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo‘lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.

Otabek MIRZAEV,
Paxtaobod tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2022 йил 27 ноябрь куни вафот этган марҳум **АЛИЖАНОВ ФАЗЛИДДИН МУЙДИНОВИЧ,**

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2024 йил 15 сентябрь куни вафот этган марҳума **МАМАТАЛИЕВА КАРИМАХОН АБДУЛЛАЖОНОВНА**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчаси, 3-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Б.Джалолов нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2020 йил 26 август куни вафот этган марҳума **АБДУВАРИСОВА АДИНАХОН УСМАНОВНА**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 32-уй, 62-хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.А.КАМАЛОВ нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2023 йил 20 июль куни вафот этган марҳум **КУЧКАРОВ ХАМИДУЛЛО ХАСАНБАЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур шоҳкўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.М.Маткаримова нотариал идорасига,

Андижон шаҳрида яшаб, 2021 йил 4 август куни вафот этган марҳум **ВАХИДОВ ШУХРАТ ПУЛАТОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.Р.Кадирова нотариал идорасига,

Андижон тумани, Бўтакара МФЙ, Роввот кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 9 июнь куни вафот этган марҳум **НУЪМОНОВ ЎКТАМБОЙ ХХХ,**

Андижон тумани, Найманобод МФЙ, Кичик Найман кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 9 сентябрь куни вафот этган марҳум **МИРЗАХМИДОВ БАХТИЁРЖОН МИРЗАКОСИМОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, У.Юсупов кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.О.Кабулова нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, Фитрат МФЙ, 126/А-уй, 26-хонадонда яшаб, 2023 йил 13 декабрь куни вафот этган марҳум **YULDASHEV SHAXABIDIN AXMEDOVICH,**

Хонобод шаҳри, Қорабагиш МФЙ, Қорабагиш кўча, 18-уйда яшаб, 2023 йил 30 сентябрь куни вафот этган марҳума **YULDASHEVA FARIDAXON XXX**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 7 ноябрь куни вафот этган марҳума **KURBONOVA MAMLAKAT MIRZAKARIMOVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 28 сентябрь куни вафот этган марҳум **XOSHIMOV OLIMJON**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Қовунчи МФЙдаги уйда яшаб, 2023 йил 4 декабрь куни вафот этган марҳум **БОЗОРБОЕВ МАМАТКАРИМ АБДУКАРИМОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Зафаробод ҚФЙ, Найман кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 13 октябрь куни вафот этган марҳум **МИРЗАЕВ ОБИТЖОН РАСУЛОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Гулистон МФЙ, Беруний кўчасидаги уйда яшаб, 1989 йил 3 октябрь куни вафот этган марҳум **МАМИРОВ ХОКИМЖОН КОМИЛОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Хасанмерган ҚФЙ, Ипак йўли кўчасидаги уйда яшаб, 2019 йил 22 декабрь куни вафот этган марҳум **АШИРОВ ЗОКИРЖОН**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Олтинкўл тумани, Оқ тепа МФЙда яшаб, 2016 йил 20 июнь куни вафот этган марҳум **XOLDAROV IMOM**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Олтинкўл тумани, Марказ маҳалласи, Олтин соҳил кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.К.Бердибеков нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Дурдиёр МФЙда яшаб, 2022 йил 21 февраль куни вафот этган марҳум **АКБАРОВ АБДУРАХМОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2024 йил 10 июль куни вафот этган марҳум **ТАЖИБАЕВ ДИЛМУРАД,**

Пахтаобод туманида яшаб, 1988 йил 26 август куни вафот этган марҳум **МАВЛАНОВ ЧЕРМАШБОЙ,**

Пахтаобод туманида яшаб, 2022 йил 16 ноябрь куни вафот этган марҳум **ГАНИЕВ ГАПИРЖОН МАХСИМОВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Қўрғонтепа тумани, Дўстлик МФЙ, Қорасув кўчаси, 173-уйда яшаб, 2008 йил 26 июль куни вафот этган марҳума **БАДАЛБОЕВА КАРОМАТ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Қўрғонтепа шаҳар, Мустақиллик кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.А.Зайнобиддинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қипчақўрғон МФЙда яшаб, 2024 йил 8 ноябрда вафот этган марҳум **MUMINOV IBRAXIMJON,**

Шаҳрихон тумани, Маслаҳаттепа МФЙда яшаб, 2022 йил 9 декабрда вафот этган марҳум **МАМАЖОНОВ СИДИҚ РАХМОНАЛИЕВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Маслаҳаттепа МФЙда яшаб, 2025 йил 20 январда вафот этган марҳума **МИРЗАОЛИМОВА ОЛМАХОН САЛИМОВНА,**

Шаҳрихон тумани, Қорабўйин МФЙда яшаб, 2022 йил 20 майда вафот этган марҳум **ЖАЛИЛОВ ИБРАГИМЖОН ХУДОБЕРИЙЕВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Қумариқ МФЙда яшаб, 2023 йил 5 ноябрда вафот этган марҳум **ЮНИСОВ ШАВКАТЖОН ИБРОХИМОВИЧ,**

Шаҳрихон тумани, Назармаҳрам МФЙда яшаб, 2019 йил 28 августда вафот этган марҳум **ИСМОИЛОВ ИСРОИЛ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Ёшлар МФЙда яшаб, 2020 йил 17 октябрда вафот этган марҳум **XOLMIRZAYEV PATTOXON MAMAJONOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Бўстон туманида яшаб, 1997 йил 18 декабрда вафот этган марҳум **DADAXO'JAYEV SALOXIDIN**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Бўстон тумани, Тараққиёт кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 29.01.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 29.01.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko'chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog'oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000115. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o'g'li